

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**  
Qo`qon davlat universiteti  
rektori D.Sh. Xodjayeva  
29 avgust 2025 yil

**“ Musiqa nazariyasi.Solfedjio”  
FANNING O`QUV DASTURI**

|                           |          |   |                |
|---------------------------|----------|---|----------------|
| <b>Bilim sohasi:</b>      | 100000   | - | Ta`lim         |
| <b>Ta`lim sohasi:</b>     | 110000   | - | Ta`lim         |
| <b>Ta`lim yo`nalishi:</b> | 60110600 | - | Musiqa ta`limi |

**Qo`qon 2025**

|                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                         |                                        |                                   |                           |
|------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|----------------------------------------|-----------------------------------|---------------------------|
| Fan/modul kodi<br>MN.S 11209 |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | O`quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>1-2                         | ECTS-Kreditlar<br>5/4             |                           |
| Fan/modul turi<br>Majburiy   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | Ta`lim tili<br>O`zbek   |                                        | Haftadagi dars<br>Soatlari<br>4-4 |                           |
| 1                            | Fanning nomi<br>Musiqqa nazariyasi.Solfedjio                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                         | Auditoriya<br>mashg`ulotlari<br>(Soat) | Mustaqil<br>Ta`lim<br>(soat)      | Jami<br>yuklama<br>(soat) |
|                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                         | 60/60                                  | 90/60                             | 150/120                   |
| I.                           | <b>Fanning mazmuni</b> <p><b>Fanni o`qitishdan maqsad</b>-talabalarda musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarning musiqiy dunyo qarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to`g`ri yunaltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o`stirish; talabalarni musiqa o`qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b>-talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish xamda musiqiy-texnik ko`nikmalarni o`rgatish;</p> <p>- kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish xamda musiqa tizimi va unda muxim fan egallagan garmoniya haqida aniq tushuichalar berish;</p> <p>- musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim elementlari, musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish;</p> <p>- talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg`usini tarbiyalash xamda o`zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdir.</p> <p><b>II. Nazariy qism (ma`ruza mashg`ulotlari)</b></p> <p><b>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>Musiqaning elementar nazariyasi moduli</b></p> <p><b>1-mavzu. Musiqiy tizim.</b></p> <p>Musiqa san`ati va uning o`ziga xos xususiyatlari. musiqaning asosiy ifodali vositalari. musiqiy tovush va uning xususiyatlari. Oberton (yuqori ton), tabiiy tovushqator.</p> <p><b>2- mavzu Musiqiy tizim tovushqatori,</b></p> <p>Tovushlarni belgilash harfiy tizimi.</p> <p><b>3- mavzu Oktavalar.</b></p> |                         |                                        |                                   |                           |

Temperatsiyalangan soz. Yarim ton va butun ton. Asosiy va hosila pog'onalar.  
<https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

**4- mavzu Alteratsiya belgilari.**

Diatonik hamda xromatik yarim tonlar va butun tonlar. Diapazon, registr, tovushlar engarmonizmi.

**5-mavzu. Nota yozuvi tizimi.**

Nota yo'li. Nota belgisi. Kalitlar. Tovush cho'zimlari. Nota cho'zimini uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar.

**6-mavzu Ko'p ovozlikni nota yo'lida ifodalash qoidalari.**

Akkolada, partitura. Dinamik belgilar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari.

**7-mavzu. Ritm. Metr. Oddiy metr**

Ritm tushunchasi. Cho'zimlarning asosiy va erkin bo'linishi. Metr, hissa, takt tushunchalari. Oddiy metr va o'lchovlar. Nota cho'zimlarining oddiy taktlarda turkumlanishi.

<https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

**8-mavzu. Metrning murakkab va boshqa turlari.** Murakkab metr va o'lchovlar. Aralash metr va o'lchovlar,

**9- mavzu O'zgaruvchan o'lchovlar.** Nota cho'zimlarining murakkab va aralash taktlarda turkumlanishi. Sinkopa va uning turlari.

**10- mavzu Vokal musiqasida nota cho'zimlarini turkumlash. Temp.**

Temp va uning turlari.

**11-mavzu. Lad.**

Major va minor ladi tuzilishi va gammasi. Turg'un va noturg'un pog'onalar. Asosiy va yondosh pog'onalar (lad pog'onalari funksiyalari).

**12- mavzu Tonalliklar.**

Tonallik tushunchasi. Major va minor tonalliklar kvinta davrasi. Garmonik va melodik turlar.

<https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

**13-mavzu. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.**

Garmonik va melodik minor. Parallel, nomdosh, engarmonik teng tonalliklar.

**14- mavzu Xalq musiqasi ldlari**

**15- mavzu. Intervallar.**

Interval tushunchasi. Garmonik va melodik interval. Intervalning son va sifat miqdorlari. Oddiy va tarkibli intervallar. Konsonans va dissonans intervallar. Intervallar aylanishi.

<https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

**16- mavzu Xromatik intervallar. Intervallar engarmonizmi.**

**17- mavzu. Tabiiy major va minor intervallari.**

Tabiiy major va minor intervallari. Turg'un va noturg'un intervallar. Intervallar

yechilishi.

**18-mavzu. Garmonik major va minor intervallari.**

xarakterli intervallar

**19 - mavzu Xromatik intervallar yechilishi.**

Xromatik intervallarning ladda yechilishi.

**20-mavzu. Akkord. Uchtovushlik.**

Akkord tushunchasi. Akkord turlari. Uchtovushlik tushunchasi. Uchtovushlik turlari va aylanmalari.

**21-mavzu. Ladning asosiy va yondosh uchtovushliklari.**

Ladning asosiy uchtovushliklari. Ladning yondosh uchtovushliklari.

**22-mavzu. Septakkord va uning turlari. Dominantseptakkord.**

Septakkord tushunchasi va uning turlari. Dominantseptakkord, uning tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.

**23-mavzu. Yetakchi septakkord.**

Yetakchi septakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi.

**24- mavzu Subdominantseptakkord.** Subdominantseptakkord tushunchasi, uning turlari, tuzilishi, aylanmalari va yechilishi. Kuydagi akkordlar.

**25-mavzu. Tonalliklar qardoshligi. Alteratsiya va xromatizm.**

Tonalliklar qardoshligi haqida tushuncha. Alteratsiya va xromatizm. Xromatik gamma tuzilishi.

**26- mavzu Modulyatsiya.**

Modulyatsiya turlari.

**27- mavzu Transpozitsiya.**

Asar tonalligini aniqlash. Transpozitsiya.

**28-mavzu. Kuy tuzilishi.**

Musiqqa asarida kuyning ahamiyati. Kuy harakati turlari. Kuy tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida.

**29- mavzu .Melizmlar.**

Musiqadagi kuy bezaklari.

**30- mavzu Ijro etishning ayrim usullar belgilari.**

Ijrochilik uslublarining yozma belgilari.

**III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**Musiqaning nazariyasi moduli.**

1. Musiqiy tizim elementlari. Nota yozuvi .

2. Nota cho‘zimlari va ularni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar. Kalitlar. Pauzalar. Ko‘p ovozlik nota yozuvida. Nota yozuvini qisqartirish belgilari.

3. Nota cho‘zimlarning asosiy va erkin ravishda bo‘linishi.

4. Sinkopa. Vokal musiqasida nota cho‘zimlarini turkumlash. Oddiy taktlarda nota cho‘zimlarining turkumlanishi. Murakkab taktlarda nota chuzimlarining turkumlanishi.

5. Lad (major va minor ladi). Tonalliklar kvinta davrasi. Major va minorning garmonik va melodik turlari. Parallel, nomdosh, engarmonik tent tonalliklar.

6. Xalq musiqasi ladlari. Pentatonika.
7. Oddiy va tarkibli intervallar. Intervallar aylanishi. Konsonans va dissonans intervallar.
8. Xarakterli intervallar va ularning yechilishi.
9. Uchtovushlik, uning turlari.
10. Major va minorning asosiy va yondosh uchtovushliklari aylanmalari va yechilishi.
11. Dominantseptakkord, Etakchi septakkord. II pogona septakkordi uning aylanmalari va yechilishi.
12. Xromatik gamma.
13. Kuy tuzilishi tahlili.
14. Musiqa bezaklari .
15. Ijrochilikning o'ziga xos uslublari

### **Solfedjio moduli.**

1. Solfedjio kursi ish shakllari – intonatsion mashqlar kuylash, solfedjiolash, notanish notali matnni o'qib kuylash, tinglab aniqlash, musiqiy diktant yozish.
2. Kalitlar. Pauzalar. Ko'p ovoqlik nota yozuvida. Nota yozuvini qisqartirish belgilari namunalarini solfedjio qilib kuylash. Diktant
3. Nota cho'zimlarining asosiy va erkin ravishda bo'linishi. Oddiy taktlarda nota cho'zimlarining turkumlanishi. Murakkab taktlarda nota cho'zimlarining turkumlanishi. Sinkopali namunalarini solfedjio qilib kuylash. Diktant
4. Lad va tonalliklar. Parallel va nomdosh tonalliklarda ishlash Diatonik sekvensiyalarni kuylash. Diktant
5. Bir ovoqli namunalarni solfedjio qilib kuylash. Diktant  
<https://drive.google.com/file/d/196Pc7cfXQaDBgKi36jrfNfjQVl2C7Jwa/edit>
6. Xalq ladlari ustida ishlash solfedjio qilib kuylash, Diktant
7. Oddiy, tarkibli intervallarni tovush va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash, Diktant <https://ru.scribd.com/document/486055902/Ladukhin-N-1000-primerov-muzykalnogo-diktanta-1-pdf>
8. Xarakterli intervalarni tovush va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash, Diktant **Diktanta**  
<https://ru.scribd.com/document/486055902/Ladukhin-N-1000-primerov-muzykalnogo-diktanta-1-pdf>
9. Xromatik intervallarni tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash. Diktant.
10. Uchtovshliklar va ularning aylanmalari tovushdan tuzib kuylash
11. Ladaning asosiy uchtovshliklari va ularning aylanmalari tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash, Diktant
12. Ladning asosiy septakkordlari va ularning aylanmalari tovushdan

- va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash (Dominantseptakkord, Subdominantseptakkord, Yetakchi septakkordlar)
13. Akkordlar ketma-ketliklari ustida ishlash, Diktant
14. Kuy tuzilishi. Melizmlar va ijro etishning ayrim usullar belgilari .Ikki ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash, Diktant
15. Diktant yozish (melodik bir, ikki ovozli diktant, garmonik intervalli yoki akkordli diktant, ritmik diktant, og‘zaki diktant ).

**IV. Laboratoriya mashg‘ulotlari rejada berilmagan.**

**V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.**

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- manbalar bilan ishlash;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- individual o‘quv vazifalar bajarish;
- mavzuga oid topshiriqlarni nota daftarida tuzish;
- nota daftarida berilgan kuy, bas ovozini garmoniyalashtirish;
- fortepianoda akkordlar ketma-ketlik (sifrovka)larini chalish;
- asarni tahlil qilish;
- asar nota matni bilan ishlash;
- bir, ikki ovozli namunalarni solfedjio qilib kuylash;
- musiqa elementlarini tovushdan va tonalliklarda tuzib kuylash;
- musiqa elementlarini tinglab aniqlash;
- intervalli va akkordli ketma-ketliklarni kuylash.

Ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:**

“Musiqaning elementar nazariyasi” moduli:

- 1.Musiqiy tizim. Nota yozuvi tizimi elementlari.
- 2.Ritm turlari. Metr turlari. Temp atamaları.
- 3.Major va minorning garmonik va melodik turlari.
4. Oddiy va tarkibli intervallar. Intervallar aylanishi. Xromatik intervallar.
- 5.Intervallarning engarmonik tengligi
6. Tabiiy major va minor intervallari va ularning yechilishi
7. Xarakterli intervallar va ularning yechilishi.
8. Xromatik intervallar yechilishi
9. Uchtovushlik turlari va uning aylanmalari.
10. Asosiy va yondosh o‘chtovushliklar, ularning aylanmalari. Akkordlar ketma-ketliklari.

11. Septakkordlar. Dominantseptakkord. Yetakchi septakkord. Subdominantseptakkord.
  12. Akkordlar engarmonik tengligi. Akkordlli ketma-ketliklar
  13. Major va minorning xromatik gammalari
  14. Kuy tuzilishining taxlili. Musiqa bezaklari va ijrochilik uslublari..
- “Solfedjio” modul:

1. Major va minor ladlari.
2. Intervallar – oddiy, xarakterli, xromatik intervalar
3. Diatonik sekvensiyalar.
4. Uchtovshlik turlari va ularning aylanmalari.
5. Ladaning asosiy ucntovshliklari va ularning aylanmalari
6. Ladning asosiy septakkordlari.
7. Transpozitsiya
8. Bir ovozlik
9. Ikki ovozlik
10. Diktant yozish.
11. Xalq ladlari
12. Akkordli ketma-ketliklar

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan nota daftarida musiqa elementlarini tuzish, ularni kuylash va tinglab aniqlash, bir va ikki ovozli kuylarni solfedjio qilib kuylash, kuy (soprano) va bas ovozlarini garmoniyalash va fortepianoda chalib ko‘rsatish, asarlarni tahlil qilish va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **VI. Kurs ishi ushbu fandan o‘quv rejada ko‘rsatilmagan.**

#### **VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Talaba bilishi kerak:

- musiqiy tizim, tovush, lad, tonallik, interval, akkord, alteratsiya, xromatizm, modulyatsiya, kuy, xalq ladlari, turli xil major va minor gammalar, kvarta-kvinta doirasi, intervallar, akkordlar, transpozitsiya, tonalliklar pog‘onadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va og‘ishma, musiqa bezaklari;
- garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funksiyalarini, stilistik xususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil qilish usullari;
- musiqiy shaklning muhim elementlari; musiqaning asosiy rivojlantirish prinsiplari; shakl qismlarining funksiyalari; bayon etish turlari va har bir shakl turining tuzilish qonun qoidalari;
- solfedjioning amaliy ahamiyatini tushunish, bir va ikki ovozli kuylarni sof intonatsiyada kuylash, musiqiy diktant yozish, musiqa elementlarini tinglab aniqlash, kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalari haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)
- major va minorlarning tabiiy, garmonik, melodik gammalarini, tovushdan va tonallikda intervallarni, akkordlar yechilishlarini, har xil tovushlardan xalq

musiqa ladlari tovushqatorlarini, berilgan tonallikda intervallar va akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, major va minor xromatik gammalarini yozma ravishda va fortepianoda tuzish;

- o‘tilgan akkordlarni to‘rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni qo‘shishda ovoz yo‘nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akkordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish;
- berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko‘rsatib, har xil tipdagi shakllarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratish; har-bir asosiy qismni va qismlarning bir-biriga umumiy bog‘lanishini tahlil qilishi; musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish
- kuyning ayrim elementlari o‘zaro musobatlari, ko‘pincha xalq musiqa ijodidan keng o‘rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo‘linishini xis etish, turli hildagi major va minor gammalar, intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash va tinglab aniqlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)
- intervallar, akkordlar, gammalar tuzish; uncha katta bo‘lmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi aniqlab, obrazlar xarakterini tahlil qilish;
- berilgan kuy yoki bas ovozi garmoniyalash; akkordlar ketma ketliklarini (sifrovka) davriya shaklida chalib berish;
- oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmoniya jihatidan tahlil qilish; har qanday shakldagi asarni tahlil qilish;
- sof, ma’noli, to‘g‘ri me’yorda, xarakterga mos, dinamik belgilarga e’tibor bergan holda bir, ikki ovozli xalq, klassik va zamonaviy yo‘lidagi asarlar namunalarini solfedjiolash, ularni eshitib turib notaga solish, davriya shaklidagi o‘tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar kuylash; xromatik tovushlari mavjud bir tonalli va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko‘p ovozli namunalar kuylash; interval, akkord, ladlarni tinglab aniqlash; berilgan kuyni transpozitsiya qilib kuylay olish; bir va ikki ovozli melodik diktant, intervalli diktantlar yozish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)

### **VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma’ruzalar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual topshiriqlar;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun vazifalar;
- ijodiy ishlar yaratish

### **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**



Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

#### **X. Asosiy adabiyotlar**

- 1.Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. - Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.(elektron)
- 2.Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. - Adabiyot uchqunlari. 2018..(elektron)
- 3,Ostrovskiy A.II.,Solovev Ch., Shokin V.P. Solfedjio. - M., «Muzika», 2013. .(electron)
- 4.LaduxinN.M. Odnogolosnoe Solfedjio. - M., «Muzika», 2005..(elektron)
- 5.Ibroximov O., Yunusov R. Solfedjio darsligi. Toshkent, «Musiqa», 2004..(elektron)
- 6 Q Raximov. Garmoniya bo'yich misollar to'plami . T 2005.
7. G`. Najmetdinov.Musiqa elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami T 2006

#### **XI. Qo'shimcha adabiyotlar**

Mark Feezell. "Music Theory Fundamentals" Copyright. 2011 All Rights Reserved. LearnMusic Theory. Net  
<https://studylib.net/doc/25226797/freefezelltheorybookvol1>

Ladukhin N 1000 Primerov Muzykalnogo Diktanta  
<https://ru.scribd.com/document/486055902/Ladukhin-N-1000-primerov-muzykalnogo-diktanta-1-pdf>

Kalmykov\_Fridkin\_-\_Solf\_ch2\_-\_Dvukhgolosie  
<https://drive.google.com/file/d/196Pc7cfXQaDBgKi36jrfNfjQVl2C7Jwa/edit>  
Kalmykov\_Fridkin\_-\_Solf\_ch1  
<https://dms5-oskol.ru/wp-content/uploads/Kalmykov-Fridkin-Solfedzhio-I-chast.-Odnogolosie1.pdf>

- .Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 2006. (elektron)
- . Sami Aziz ug'li. Garmoniya T., «O'zbekiston»..(elektron)
- .Ibrohimov O., Yunusov R. Solfedjio darsligi. Toshkent, «Musiqa», 2004.(elektron)
- . Azizov O. Solfedjio (ko'p ovozli). Toshkent, «Musiqa», 2007.(elektron)

#### **Axborot manbaalari**

1. www.tdpu.uz

|  |                                                                                                                                                         |
|--|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | 2. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> 3<br>4. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a>                                                |
|  | Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. |
|  | <b>Fan/modul uchun ma`sular:</b><br>1.Q. Fozilov – QDU Musiqa nazariyasi kafedrası katta o`qituvchisi                                                   |
|  | <b>Taqrizchi:</b><br>D. Nosirov - QDU Musiqa nazariyasi kafedrası dotsenti.                                                                             |



